

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

SUG'URTA FAKULTETI

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” KAFEDRASI

RAZZOKOV BOBURSHOH SAIDAXMAD O'G'LI

**“JISMONIY SHAXSLARDAN UNDIRILADIGAN MOL-MULK
SOLIG'INI BYUDJETGA UNDIRISH”**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5230800-“Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat ta'lim yo'nalishi

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**Sug'urta fakulteti
dekani**

_____ i.f.n., dots. G'.Safarov

“ _____ ” _____ 2018 y.

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

**“Soliqlar va soliqqa tortish”
kafedrasi mudiri**

_____ i.f.d., prof. A.Jo'rayev

“ _____ ” _____ 2018 y.

Bitiruvchi:

5230800 – “Soliqlar va soliqqa tortish”
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi Razzokov
Boburshoh Saidaxmad o'g'li

Ilmiy rahbar:

dots. A.Amanov _____

TOSHKENT - 2018

MUNDARIJA

betlar

KIRISH.....	3
1-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQNING NAZARIY ASOSLARI VA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISHI.....	7
1.1. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning nazariy va huquqiy asoslari.....	7
1.2. Mahalliy byudjet daromadlari va ularni shakllantirishda soliqlarning ahamiyati.....	11
1-bob bo'yicha xulosa.....	20
2-BOB. JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKLARIDAN SOLIQ UNDIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (SHAYXONTOHUR TUMANI MA'LUMOTLARI MISOLIDA).....	21
2.1. O'zbekistonda amalda bo'lgan mahalliy soliqlar va ularning amal qilish xususiyatlari.....	21
2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan soliq undirishning uslubiy asoslari.....	26
2.3. Jismoniy shaxslar mol-mulklaridan olinadigan soliqni hisoblash va undirish tartibining tahlili.....	30
2-bob bo'yicha xulosa.....	41
3-BOB. JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKLARIDAN SOLIQ UNDIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	42
3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirishdagi muammolarni bartaraf etish masalalari.....	42
3.2. Jismoniy shaxslar mol-mulklaridan olinadigan soliqni takomillashtirish yo'nalishlari.....	47
3-bob bo'yicha xulosa.....	53
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	54
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan soliq islohotlarining amaliy natijasi asosan harakatdagi soliqlarni soddalashtirish va unifikatsiya qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning davlat byudjeti bilan hisob-kitoblari mexanizmini takomillashtirish, soliq hisobotlarini taqdim etish holatlarini kamaytirishga qaratilgan. Respublikamiz hukumati tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari yuridik va jismoniy shaxslar zimmasidagi soliq yukini kamaytirishga, soliqqa tortish tizimini soddalashtirishga, soliqqa tortiladigan ob'ektlarni maqbul darajada kamaytirishga qaratilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Har bir tuman va shaharda, respublika ahamiyatiga molik yirik korxonalar hissasini e'tiborga olmagan holda, soliqqa tortish bazasini kengaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent viloyatining barcha tumanlarini subventsiyadan chiqarishni so'zsiz ta'minlash kerak. Bu yil boshqa hokimliklar va tegishli organlar uchun ham subventsiyadan qutilish masalasida sinov yili bo'ladi. Buning uchun Makroiqtisodiyot kompleksi tarkibidagi vazirlik va idoralar har kuni, har haftada samarali va tinimsiz ish olib borishi kerak. Busiz natijaga erishib bo'lmaydi.¹

Hozirda soliqqa tortish bo'yicha amalga oshirilayotgan izlanishlarning aksariyat qismi yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarga bag'ishlangan bo'lib, jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni alohida chuqur o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarni sezilarli deb bo'lmaydi. Xususan, jismoniy shaxslar to'laydigan mulk va yer soliqlari byudjet tizimida katta salmoqqa ega bo'lmasada, ammo, soliq tizimida alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston

¹"Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasidan olindi. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11 (6705)

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida yangi bosqichni boshlab berdi.

Besh yilga mo'ljallangan mazkur hujjatning uchinchi yo'nalishida soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish hamda tegishli rag'batlantiruvchi choralarni kengaytirishga alohida ahamiyat qaratilgan. Modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarni nazariy jihatdan tadqiq etish, bir tomondan ushbu soliqlarning byudjet-soliq tizimidagi ahamiyatini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan aholining soliqlar xususidagi fikrlarini ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni alohida chuqur o'rganadigan ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjuddir. Yuqoridagilarga tayanib, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ini nazariy jihatdan mushohada etish va ushbu soliqni hisoblash jarayonidagi muammolarni bartaraf etish jarayonlarini o'rganish maqsadida mazkur bitiruv malakaviy ishi mavzusi yoritib berildi.

Jismoniy shaxslardan mahalliy soliqlarni undirish mexanizmining samarali emasligi, soliqlarni undirishda muammolarning mavjudligi, soliqlarning amaldagi harakatini belgilovchi me'yoriy hujjatlar soliq voqe'liklarini to'liq qamrab olmasligi, ya'ni mukammal emasligi, mahalliy soliqlardan mol-mulk solig'ini undirish bilan bog'liq ko'pgina muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan soliq tizimi muammolari hamda soliqlarni undirishning ayrim jihatlarini o'rganish jarayonida J.Abdullaev, A.Jo'raev, J.Zaynalov, R.Karimov, T.Malikov, O.Olimjonov, O.Abduraxmonov, A.Yusupov, Q.Yahyoev, Q.Bozorov, H.Jamolov, O.Yakubboev, B.Toshmurodova, A.Adizov va boshqa iqtisodchi-olimlarning ilmiy ishlari ham muhim uslubiy manba vazifasini bajardi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini byudjetga to'lash jarayonida vujudga keladigan soliqlarga oid iqtisodiy munosabatlar yig'indisidan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Ishning ob'ekti bo'lib mol-mulk solig'ini to'laydigan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Jismoniy shaxslar to'laydigan mahalliy soliqlarni nazariy jihatdan tadqiq etish, bir tomondan ushbu soliqlarning byudjet-soliq tizimidagi ahamiyatini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan aholining soliqlar xususidagi fikrlarini ijobiy bo'lishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlarni alohida chuqur o'rganadigan ilmiy izlanishlarga ehtiyoj mavjuddir. Yuqoridagilarga tayanib, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'ini nazariy jihatdan mushohada etish va ushbu soliqlar mexanizmini chuqur tahlil etish jarayonlari mazkur bitiruv malakaviy ishining mavzusi sifatida tanlandi.

Bitiruv malakaviy ishi oldiga qo'yilgan vazifalar quyidagilardan iborat:

- jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining tahlili va uning mahalliy byudjetni shakllantirishda tutgan o'rnini aniqlash;

- mamlakatimiz soliq qonunchiligida mol-mulk solig'i yuzasidan o'zgarishlarni tahlil qilish, takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

- respublikamizda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'idagi muammolarni tahlil qilish va shu asosda ularni bartaraf etish yo'llarini asoslab berish.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining nazariy-amaliy ahamiyati.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati shundaki, ish natijalaridan jismoniy shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortishni tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlarda foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishning xulosalari va amaliy takliflaridan jismoniy shaxslarning mol-mulklarini soliqqa tortishni takomillashtirish, modul tizimiga asoslangan elektron majmualarni yangilashda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

Bitiruv malakaviy ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslab berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi soliq siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, byudjet daromadlari shakllanishida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining o'rni va ahamiyati atroflicha o'rganib chiqilgan.

Ishning ikkinchi bobi jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari, soliq ob'ektlari, soliq bazasi, soliq stavkalari va soliqni hisoblash uslubiyati yoritib berilgan. Bundan tashqari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i amaliy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilgan.

Bitiruv malakaviy ishning uchinchi bobida jismoniy shaxslarning mol-mulkklaridan soliqni undirish bo'yicha amaliyotda vujudga kelayotgan muammolar o'rganilgan va ularni bartaraf etadigan bir qator asosli yo'nalishlar keltirib berilgan.

Ish oxirida mavzuning nazariy va amaliy ko'rsatkichlar asosida o'rganish orqali bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tavsiyalar va takliflar keltirgan. Bitiruv malakaviy ishining matni 63-betdan iborat bo'lib, unda 5 ta rasm hamda 6 ta jadval keltirilgan.

1-BOB. JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQNING NAZARIY ASOSLARI VA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING SHAKLLANISHI

1.1. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning nazariy va huquqiy asoslari

Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti shundan dalolat beradiki, mol-mulk solig'ini vujudga kelishi va rivojlanishi butun tarixi mobaynida uning vaqt chegaralari bilan emas, balki ushbu soliqlarning ahamiyati bilan belgilanuvchi davrlarga shartli ravishda bo'lish mumkin.

Uzoq vaqt nazariyasiga qo'ra soliqlar uch manbadan: yer daromadidan, sarmoya daromadidan va mehnat daromadidan olingan deb hisoblab kelingan. Soliqlar ham o'z o'rnida daromadlarning shu uchta manbaiga qo'ra soliqlar ya'ni yer, sarmoya va ish haqi daromadlaridan olinadigan soliqlarga bo'lingan.

Mol-mulklar (ayniqsa uning ko'chmas qismini) soliqqa tortish vaziyatli to'lov undirish vositasi sifatida namayon bo'lib, muayyan mulkka egalikning o'zi ushbu mulkdan foydalanishga asoslangan faoliyatdan daromad olish uchun muntazam va o'ta qulay shart-sharoitlarni tashkil qilgan.

Tabiiyki, avvalgi jami mol-mulk majmuiga solinadigan soliq mohiyatan yer solig'idan iborat bo'lgan. Bu hol yer va dehqonchilik vositalari, xo'jalik yuritish darajasining ko'rsatkichi sifatida asosiy boylik sanalib, bu xo'jalik faravonligini darajasini belgilaganlar.

Amir Temur davridagi soliq tizimida ham yer va mulk soliqlari mavjud bo'lganligini aloxida ta'kidlab o'tishimiz mumkin. Aynan shu vaqtda xiroj, molu jixot, qo'nalga, boj, peshkash, savazi va shilon kabi soliqlar amal qilgan bo'lib, bulardan "Xiroj"-asosiy soliq bo'lib, bu yerning sharoitiga va yer egasining jamiyatda tutgan ijtimoiy-siyosiy mavqeiga qarab olingan va hosilning 1/10, 1/4

yoki 1/3 qismini tashkil etgan bo'lsa, “molu-jihot” solig'i (arabcha “mol”-daromad va “jihot”-sabab)-umumiy soliq, u pul yoki natura shaklida to'langan².

Bu hozirgi vaqtga kelib, mol-mulk solig'ining asosiy muammosi soliqqa tortish obektini aniqlashdan iboratdir. Ya'ni, bular “Mol-mulk” tushunchasi o'z ichiga nimalarni olishi kerak, uning umumiy yoki to'liq majmui soliqqa tortilishi shartmi, mol-mulkning barcha turlari uchun yagona me'yorlar qo'llanishi to'g'rimi, degan masalalar mavjud.

Mol-mulk bir yuridik va jismoniy shaxslarning ma'lum bir davrga ega bo'lgan ma'lum boyliklarga daxldor barcha iqtisodiy qiymatliklarning puldagi ifodasi tushuniladi. Mulk deganda bu unumli va unumsiz iste'mol buyumlarini odamlar tomonidan o'zlashtirishning belgilangan ijtimoiy usulini tushunishimiz mumkin.


Soliqqa tortish maqsadida umumqabul qilingan mulk ikki guruhga ya'ni ko'char va ko'chmas mulklarga bo'lib o'rganiladi. Ko'chmas mol-mulkga yer maydonlari, ularga qad rostlagan imoratlar, binolar va boshqa muhim inshootlar kiradi.

Shundan kelib chiqib, Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish hududlarda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini doimiy va bir maromda to'liq undirilishi bilan bog'liq holda mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni daromadlarini oshishidan manfaatdorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Respublika byudjetga tushish nuqtai-nazardan soliqlar, umudavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Umumdavlat soliqlari asosan bu respublika byudjetiga kelib tushadigan soliqlar bo'lib, ular asosan umumdavlat makeidagi vazifalarni bajarish moliyaviy resursi sifatida xizmat qiladi. Biroq, bu soliqlarning barchasi ham davlat yoki respublika byudjetida qoldirilmaydi, ya'ni ularning ayrimlaridan muayyan qismi hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlangan darajasi va holatidan kelib chiqib mahalliy hokimiyatlarning ixtiyoriga qoldiriladi.

²“Temur tuzuklari” Forschadan Sog'unii A. va Karimov X.: G' G'ulom nomidagi “Adabiyot va sanat nashriyoti”

Har qanday mahalliy hudud o'z mahalliy byudjetini o'zidagi mavjud mahalliy soliqlar va yig'imlar evaziga to'liq shakllantira olsa, bu hudud iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan boshqa hududlarga nisbatan ancha tez rivojlanadi. Buning uchun esa byudjet daromadlarining asosi bo'lmish mahalliy soliqlarning ob'ektlari o'z vaqtida soliq xizmati idoralari hodimlari tomonidan hisobga olinishi, ular hisobi tashkil qilinishi, soliqlar muddatida hisoblanib, soliq to'lovchilarga to'lov xabarnomalari o'z vaqtida undirilishini nazorat qilib turishlari lozim bo'ladi.



1-rasm. 1998-2017 yillar orilig'ida jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari³

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini joriy etilishi, uni undirilishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish bo'lsa, ikkinchidan jismoniy shaxslarni o'z tasarrufidagi, egaligidagi, foydalanishdagi mol-mulklaridan samarali foydalanishga undashdan iborat.

Hozirgi kunda esa mol-mulk solig'i O'zbekiston Respublikasida 2008 yil 1 yanvardan amal qilayotgan yangi Soliq kodeksi asosida muvofiq undirilmoqda. Xususan, soliq kodeksining 48 bobi jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarga bag'ishlangan hisoblanadi.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidentining byudjet parametrlari to'g'risidagi qarorlari asosida tayyorlangan.

Soliq kodeksiga muvofiq: Soliq to'lovchilar bu - Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir.

Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir⁴.

Jismoniy shaxslarni mol-mulkiga soliq solish ob'ekti bo'lib esa, O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy-joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar soliq solish ob'ektidir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan solig'ini joriy etilishi uni undirilishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish bo'lsa, ikkinchidan jismoniy shaxslarni o'z tasarrufidagi, egaligidagi, foydalanishdagi mol-mulklaridan samarali foydalanishga undashdan iborat.

Bozor iqtisodiyoti mulkchilik shakllarining xilma-xil bo'lishini talab qiladi, chunki tovar muayyan mulk ob'ekti bo'lgandagina oldi-sotdi qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham: "Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi" - deb ta'kidlanadi.

Xususiylashtirish mulkka asoslangan ko'p ukladli bozor iqtisodiyotining qaror topishi va rivojlanish jarayonida turli mulk shakllaridagi institutlarning faol rivojlanish va tadbirkorlik faoliyatining kengaytirilishi, korxona va tashkilotlarni xususiylashtirish, ularni aktsiyadorlik jamiyatlariga aylantirish real mulk shaklidagi turli mulkdorlar sonini o'sishiga olib keldi. Shundan kelib chiqqan holda mulkchilik munosabatlarida amalga oshirilayotgan turli o'zgarishlar, ya'ni turli xil shakldagi mol-mulklar ham jismoniy shaxslarning tasarrufida bo'lishi mumkin. Bu xususida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida "Har bir shaxs mulkdor

⁴O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 272 - moddasi

bo'lishga haqli" hamda "Bozor munosabatlarini ivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining negizini xilma xil shakllardagi mulklar tashkil etadi" deb ko'rsatilgan.

1.2. Mahalliy byudjet daromadlari va ularni shakllantirishda soliqlarning ahamiyati

Bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan jarayonlar va birinchi navbatda, qarama-qarshiliklarning kuchayib borayotgani, jahon bozorlaridagi vaziyatning tez o'zgarayotgani, dunyoning ko'plab davlatlarida investitsiya faolligining susayishi va o'sish sur'atlarining pasayishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi, albatta.

Shundan kelib chiqib, 2018 yilda yalpi ichki mahsulot hajmining o'sish sur'ati 108 foiz darajasida bo'lishi ko'zda tutilmoqda. Bu borada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilanmoqda.

Biz o'z oldimizga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini qo'ymoqdamiz.

Joriy yilda xizmat ko'rsatish sohasini yanada jadal sur'atlar bilan rivojlantirish mo'ljallanmoqda. Xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 54,5 foizga etkazish nazarda tutilmoqda.

Ayni paytda inflyatsiya darajasi 5,5 – 6,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda. Bu 2017 yilga qaraganda sezilarli darajada pastdir.

2018 yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AQSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollarini yoki 2017 yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga etadi.

Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish ob'ektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el

investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi.

Yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari har tomonlama chuqur va puxta o'ylangan izchil soliq va pul-kredit siyosatini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Ushbu siyosat, avvalambor, iqtisodiyotda soliq yukini kamaytirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatida uning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirishga qaratiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning erkinlashuvi va islohotlarning chuqurlashuvi jarayoni budjet-soliq tizimini ham muntazam takomillashtirib borishni taqozo qilmoqda. Soliq siyosati moliya tizimi islohotlarining muhim yo'nalishi sifatida iqtisodiyotni tartibga solish hamda uning barqarorligini ta'minlash jarayonida har qachongidan ham muhimroq bo'lib bormoqda.

Ma'lumki, budjet-soliq siyosati borasida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida budjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligini ta'minlash hamda ular samaradorligini oshirish masalalari turadi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar moliya tizimini, ya'ni shu bilan birga soliq siyosatini ham qayta ko'rib chiqishni taqoza etmoqda.

Hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlarni ta'minlash, shubhasiz mahalliy boshqaruv organlarining mustahkam moliyaviy bazasiga ega bo'lishini taqoza etadi. Ularning eng yirik va asosiy moliyaviy bazasi mahalliy byudjetlar hisoblanadi.

Hududiy davlat boshqaruv organlari moliyaviy tizimining asosiy tarkibiy qismi – bu o'z mahalliy byudjeti hisoblanadi.

“Mahalliy byudjet – davlat byudjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi”.⁵ Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetida muhim

⁵O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 2014 y., 36-son, 452-modda

tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar ishlab chiqarishning yakuniy natijalarini aholiga etkazishning asosiy yo'nalishini belgilab beruvchi vositadir. Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol fondlari aholining ayrim guruhlariga o'rtasida taqsimlanadi.

Hududlar, mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatining baholanilishi, bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlar samarali tizimi shakllanishi uchun zarurdir. Mahalliy byudjetlarning «moliyaviy tenglashtirish siyosati» orqali boshqarish amaliyotida aynan mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlari masalasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Byudjetlararo munosabatlarda faqatgina hududlar soliq faoliyatigagina asoslanishi yoki moliyaviy imkoniyatning qolgan manbalariga u qadar e'tibor bermaslik byudjet siyosatining qisqa muddatli va fiskal tabiati bilan belgilanuvchi tor doirasini xususiyatlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy imkoniyat (potentsial) tushunchasi 70-yillarda A.M.Volkov tomonidan talqin qilingan edi.⁶ Shu boisdan ushbu tushuncha «bizning byudjet amaliyotimizga endi kirib keldi va uni hanuzgacha mavhum tarzda izohlab kelinayotir» - degan o'rinsiz xulosaga qo'shilish qiyin.

A.M.Volkov moliyaviy potentsialning absolyut va nisbiy shakllarini farqlash lozimligini ta'kidlab, absolyut moliyaviy potentsialni «moliyaviy resurslar o'sishi bilan birday» talqin etgan. Ushbu yondoshuv dastlabki qarashda biroz to'g'riday tuyiladi, chunki moliyaviy resurslarning o'sishini davlatning oldin ishlatilmay yotgan resurslarini oborotga jalb etish orqali izohlash mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha, ushbu yondoshuv «moliyaviy potentsial» tushunchasini tor darajada talqin etishdir. Odatda ko'pincha moliyaviy resurslar tarkibi tahlilida davlatning, hududlar xo'jalik sub'ektlarining oxirgi vaqtlarda aholining moliyaviy resurslari ajratib ko'rsatilmoqda. Shu boisdan bo'lsa kerak, ayrim mualliflar hudud moliyaviy imkoniyati (potentsiali) tarkibida huquqiy shaxslar, aholi va davlat moliyaviy

⁶Волков А.М. Перспективное планирование финансовых ресурсов. -М.: Финансы, 2005, с.-149-150.

imkoniyatlarini ajratib ko'rsatayotirlar.⁷ Bizning fikrimizcha, bunday tavsif ham noo'rindir. Moliyaviy imkoniyat tushunchasi ko'p jihatdan davlat, alohida hudud yoki mahalliy boshqarish bo'g'ini (mahalliy byudjetlar) uchun xosdir. Garchi tashkilotlarning (korxonalar) moliyaviy imkoniyati haqida gapirish mumkin bo'lsada, biroq aholi moliyaviy imkoniyatini baholash o'ta mushkul masaladir.

Hudud moliyaviy imkoniyati (potentsiali)ni baholashning o'ziga xos uslubiyotini O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi, Iqtisodiyot Vazirligi qoshidagi ilmiy markazlarda to'liq o'rganilmayotganligi yoki byudjet amaliyoti uchun aniq tavsiyalarining mavjud emasligi hozirgi kunda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari shuningdek, tartibga soluvchi daromadlardan ham tashkil topadi. Tartibga soluvchi daromadlar deganda mahalliy byudjetlarga yuqori byudjet tomonidan ajratiluvchi daromadlar tushuniladi.

Mahalliy byudjetni daromad bazalarini mustahkamlashda ular ixtiyoriga berilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar bo'yicha tadbirlar muhim o'rin tutadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mahalliy byudjetlar mahalliy soliqlar va yig'imlarni tashkil etish va boshqarishda mustaqil bo'lsalarda, Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqarilgan tegishli me'yorlar doirasida faoliyat yuritadilar. Mahalliy byudjetlar amaliyotidagi muhim xususiyat Byudjet kodeksida belgilanganidek, mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmasligidir. Davlat moliya siyosatida mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining balansligi respublika byudjeti ajratmalari orqali kafolatlanmoqda.

Byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish va boshqarish tizimida mahalliy byudjetlar rioya qilishi lozim bo'lgan muayyan cheklanishlar muhim ahamiyatga ega. Bu holat O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi 24-moddasida ham qonuniy mustahkamlangan bo'lib, unda:

«... mahalliy byudjetlarni qabul qilish va ijro etishda:

⁷Коломнец А.Л., Новикова А.И. О соотношении финансового и налогового потенциалов в региональном разрезе. //Налоговый Вестник, 2007, №3, с.-5.

1) qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobiga jamg'armalar tashkil etishga;

2) mablag' jalb qilishni amalga oshirishga (yuqori byudjetlardan byudjet ssudalari olish bundan mustasno);

3) byudjetdan ajratiladigan tasdiqlangan mablag'dan ortiqroq mablag' sarflashga;

4) byudjet mablag'lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga;

5) yuridik va jismoniy shaxslarga byudjet ssudalari berishga yo'l qo'yilmaydi» deb, ta'kidlangan.

Mahalliy byudjetlarning davlat byudjet siyosatidagi tutgan o'rni mahalliy byudjetlar daromadlarini tashkil etish hamda uning tarkibini belgilashda moliyaviy asos hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir.

Mahalliy byudjetlarni daromadlarini shakllantirish O'zbekiston Respublikasini Byudjet kodeksiga asosan amalga oshiriladi. Ushbu moddaga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari:

-qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;

-qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'imlari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;

-qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiq davlat mulki ob'ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

-qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;


-yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet subvensiyalari, byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari;

-yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

-qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

Shunga muvofiq, mahalliy byudjetlar daromadlari o'z daromadlari (mahalliy soliqlar va yig'implar) va yuqori byudjetdan ajratiladigan ajratmalar (umumdavlat soliqlaridan ajratmalar, dotatsiyalar) hisobidan shakllanadi.

Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari tarkibi quyidagi rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. **Mahalliy byudjet daromadlarining manbalari**⁸

⁸Qonun hujjatlari asosida talaba tomonidan tayyorlandi.

O'zbekiston Respublikasi mahalliy byudjetlari tomonidan xarajatlarni amalga oshirish uchun daromadlarga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun mahalliy byudjet daromadlarini shakllanishining amaldagi holati va ushbu jarayondagi daromad manbalarini tahlil qiladigan bo'lsak, avvalambor, daromadlarning shakllanishiga e'tibor berish lozim.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i quyidagi jadval ma'lumotlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetlarning daromadlar tushumi 2015 yildan 2017 yilgacha 13391,4 mlrd. so'mdan 17498,5 mlrd. so'mgacha oshdi.

1-jadval

**Davlat byudjeti daromadlarida mahalliy byudjetlar
daromadlarining tutgan o'rni⁹**

DAROMADLAR	2015 yil	2016 yil	2017 yil
Davlat byudjeti solikli daromadlari (mlrd.so'm), shu jumladan:	30160,8	36184,9	40505,8
Respublika byudjeti (mlrd.so'm)	16769,4	20335,9	23007,3
Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%da)	55,6	56,2	56,8
Mahalliy byudjetlar (mlrd.so'm)	13391,4	15849	17498,5
Davlat byudjetiga nisbatan salmog'i (%da)	44,4	43,8	43,2

O'z navbatida mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi salmog'i ham oshdi, ya'ni 2015 yil mahalliy byudjetlarning davlat byudjetiga nisbatan salmog'i 44,4 % bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 43,2 %ni tashkil etdi. Albatta bu sezilarli ko'rsatkich emas. Shunga qaramasdan mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat

⁹Manba: O'z.R. Prezidentining byudjet parametrlari to'g'risidagi qarorlaridan olindi.

byudjeti daromadlaridagi ulushining ortib borishi ijobiy holat hisoblanib, mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlanishiga olib keladi.

Mahalliy byudjetlarning asosiy daromad manbai bu mahalliy soliqlar va yig'imlar hisoblanadi.

Mahalliy byudjetlar uchun 2017 yil uchun tasdiqlangan subventsiya va dotatsiyalarni mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishdagi o'ziga xos tomonlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin.

2-jadval

**Mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda
boshqa manbalarning o'rni (2017 yil)¹⁰**

(mln.so'm)

Hududlar	Daromad	Xarajat	Subventsiya
Qoraqalpog'iston Respublikasi	601047,5	1096405,0	495357,5
Andijon viloyati	1368900,0	1368900,0	543093,2
Buxoro viloyati	916088,0	916088,0	-
Jizzax viloyati	341498,0	713523,0	372025,0
Qashqadaryo viloyati	1442899,0	1442899,0	-
Navoiy viloyati	615696,0	615696,0	-
Namangan viloyati	758463,1	1266828,0	508364,9
Samarqand viloyati	1098721,4	1740971,0	642249,6
Surxandaryo viloyati	606596,4	1224990,0	618393,6
Sirdaryo viloyati	317741,7	477295,0	159553,3
Toshkent viloyati	1367267,0	1367267,0	-
Farg'ona viloyati	1760336,0	1760336,0	-
Xorazm viloyati	808740,4	941910,0	133169,6
Toshkent shahri	1390174,0	1390174,0	-
Jami	13394168,5	16323282,0	2929113,5

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017 moliya yilida Toshkent shahri mahalliy byudjeti daromadlari o'zining xarajatlarini to'liq miqdorda qoplaydi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yuqori byudjetlardan mahalliy byudjetlarga beriladigan dotatsiyalar va subventsiyalar mahalliy byudjetlarning muhim daromad manbai hisoblanmoqda.

¹⁰O'z.R. Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli qaroridan olindi.

Dotatsiya uslublari mahalliy byudjetlarning respublika byudjetiga murojaat etish lozimligini bildirib, ularni o'z hududlaridagi boqibeg'amlik “fazilat”larini kuchaytiradi. Mahalliy soliqlar va yig'implarning byudjetga to'liq tushishini tashkil qilish ularning zimmasidagi asosiy vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, mahalliy byudjetlar imkoniyatlari, ularni shakllanish manbalari va omillarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- mahalliy byudjetlar imkoniyatlari tushunchasining mohiyati nafaqat ularning byudjetda ko'zda tutilgan daromad qismining hajmi bilan yoki nafaqat mahalliy byudjetlar daromadlari ijrosi bilan va hatto hududlar soliq-moliyaviy qudrati miqdori bilan to'liq yoritib berila oladi, balki mazkur tushunchaning moliyaviy-iqtisodiy tabiati va sifat tavsifi, avvalo, ular zimmasidagi majburiyatlarning to'liq va o'z vaqtida ijro etilishini hamda xarajat vakolatlari taqsimotiga ko'ra ijro etilgan byudjet majburiyatining moliyaviy ta'minoti orqali aniq ifoda etiladi;

- mahalliy byudjetlarni boshqarish siyosatidagi mazkur yondoshuv ular huquq va majburiyatlarining o'sib borish qonuniyati kuzatilayotgan hozirgi sharoitda hududlarda iqtisodiy faollik va mablag'lardan samarali foydalanishni rag'batlantirish choralarining hisobga olinishini ta'minlaydi;

- mahalliy byudjetlar daromad bazasining shakllanish manbalari amaldagi byudjet qonunchiligida quyidagilarni o'z ichiga olmoqda: o'z (biriktirilgan) daromadlari, tartibga soluvchi daromadlar, moliyaviy tenglashtirish siyosati orqali ko'zda tutilgan respublika byudjetidan ajratmalar (byudjet subventsionalari va byudjet dotatsionalari), o'zaro hisob-kitoblar tarzida kelib tushuvchi mablag'lar, byudjet ssudalari, boshqa manbalar.

1-bob bo'yicha xulosa

-jismoniy shaxslardan mahalliy soliqlarni undirish mexanizmining samarali emasligi, soliqlarni undirishda muammolarning mavjudligi, soliqlarning amaldagi harakatini belgilovchi me'yoriy hujjatlar soliq voqe'liklarini to'liq qamrab olmasligi, ya'ni mukammal emasligi, mahalliy soliqlardan mol-mulk solig'ini undirish bilan bog'liq ko'pgina muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

-jismoniy shaxslarga har yili 15 oktyabrga qadar mol-mulk solig'i va er solig'ini to'lash uchun davlat soliq xizmati organlari tomonidan 1 mayga qadar xabarnoma berilishidan kelib chiqib, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, shuningdek jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i va er solig'ini to'lab berish to'g'risidagi talabnomani takroriy berilishini qisqartirish maqsadida soliq kodeksining 59, 61 va 62-moddalariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

-hududlardagi ijtimoiy va iqtisodiy rivojlarni ta'minlash, shubhasiz mahalliy boshqaruv organlarining mustahkam moliyaviy bazasiga ega bo'lishini taqoza etadi. Ularning eng yirik va asosiy moliyaviy bazasi mahalliy byudjetlar hisoblanadi. mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi salmog'i ham oshdi, ya'ni 2015 yil mahalliy byudjetlarning davlat byudjetiga nisbatan salmog'i 44,4 % bo'lsa, 2017 yilda bu ko'rsatkich 43,2 %ni tashkil etdi. Albatta bu sezilarli ko'rsatkich emas. Shunga qaramasdan mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromadlaridagi ulushining ortib borishi ijobiy holat hisoblanib, mahalliy byudjetlar daromadlar bazasini mustahkamlanishiga olib keladi.

-mahalliy byudjetlarni boshqarish siyosatidagi mazkur yondoshuv ular huquq va majburiyatlarining o'sib borish qonuniyati kuzatilayotgan hozirgi sharoitda hududlarda iqtisodiy faollik va mablag'lardan samarali foydalanishni rag'batlantirish choralarining hisobga olinishini ta'minlaydi.

2-BOB. JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKLARIDAN SOLIQ UNDIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI (SHAYXONTOHUR TUMANI MA'LUMOTLARI MISOLIDA)

2.1. O'zbekistonda amalda bo'lgan mahalliy soliqlar va ularning amal qilish xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoriga “Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilishi vakolati berilgan”.¹¹ Shu bilan mahalliy hokimiyat organlarining byudjet sohasidagi faoliyatining konstitutsiyaviy asosi o'rnatilgan. Mahalliy joylardagi vakillik hokimiyati va ijro hokimiyati organlarining bu sohadagi vazifalari, vakolatlari turlicha bo'lib, ular avvalo “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi qonunda belgilangan. Xalq deputatlari Kengashlari o'z hududining byudjetini va uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlaydi.¹² Byudjet loyihasi (ko'rsatkichlari) hokim tomonidan taqdim qilinadi. Shuningdek, qonunning shu moddasiga binoan mahalliy kengashlar, mahalliy soliqlar, yig'implar, boj miqdorini belgilaydi va mahalliy byudjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'implar va to'lovlar bo'yicha imtiyozlar beradi.

Mazkur qonunning 25 - moddasida hokimlarning byudjet sohasidagi vazifasi ko'rsatilgan bo'lib, unga asosan hokimlar tegishli hududning byudjetini asosiy ko'rsatkichlarini xalq deputatlari Kengashlariga tasdiq uchun taqdim etadi va byudjet, hisob-kitob, moliya masalalarida turli qonun hujjatlarida o'zlarining vakolatlariga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadilar. Shunday qilib, vakillik hokimiyati organlarining vazifasi byudjetini va uning ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash bo'lsa, ijro hokimiyati organlarining vazifasi byudjet loyihasini ishlab chiqish, ijro haqidagi hisobotni tayyorlash va eng muhimi, samarali ijroni tashkil etish hisoblanadi.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 100-moddasi 4-band.

¹² "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun 24-moddasi.

Byudjet tegishli hududning rivojlanishi, aholi turmush sharoitining yaxshilanishida muhim ahamiyatga ega asosiy vositadir. Shuning uchun uni tasdiqlash, ijrosi haqidagi hisobotni tasdiqlash mahalliy vakillik organlarining mutloq vakolatiga kiradi. Byudjet tasdiqlanishida daromadlarning umumiy miqdori, uning manbalari, shuningdek, xarajatlar belgilanib, har bir soha uchun ajratilgan mablag'lar aniq ko'rsatiladi. Bu hudud xo'jaligini moliyalashtirish, ijtimoiy-madaniy tadbirlar va davlat organlarini pul bilan ta'minlashni o'z ichiga oladi. Byudjet tasdiqlanganda uning har bir uch oylik buyicha taqsimoti ham belgilanadi.

Mahalliy hokimiyat organlari byudjet ijrosini tashkil qiladi, moliyaviy intizomga rioya qilinishi ustidan nazorat qilinadi. Zarur hollarda byudjet ijrosi jarayonida uni qayta taqsim qiladi. Byudjet ko'rsatkichlari hokim tomonidan tayyorlanadi. Byudjetning ijrosi haqidagi hisob ham hokim tomonidan tayyorlanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoiti davrida byudjet masalasi, moliya ishlari juda muhim va murakkab masaladir. Har bir hududning rivoji, kam ta'minlangan oila va shaxslarning etarli darajada ijtimoiy himoya qilinishi, har bir hudud davlat hokimiyat organlari moliyaviy masalalarni to'g'ri hal qila bilishiga bog'liq. Bunda mahalliy byudjetga tushadigan soliq va yig'implarning turi, miqdorini belgilash alohida o'rin tutadi.

Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko'rsatganda, ishlar bajargan yoki bozorlarda oldi-sotdi qilish jarayonida pul munosabatlarini hosil qiladi. Lekin ular soliq bo'la olmaydi, soliq munosabati bo'lishi uchun davlat mamlakatda yaratilgan mahsulot qiymatini taqsimlash yo'li bilan davlat budjetiga majburiy tartibda to'lanishi yoki undirilishi lozim. Davlat uchun budjetning asosiy manbai hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega.

2008 yil 1 yanvardan boshlab amalga kiritilgan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 23-moddasida mahalliy soliqlar va yig'implar aks ettirilgan. Ana shu moddalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, mahalliy soliqlardagiga nisbatan

umumdavlat soliqlari tarkibida bilvosita soliqlar miqdori ko'pligining guvohi bo'lamiz. Bu o'z navbatida, umumdavlat soliqlarining aksariyati milliy iqtisodiyotda fiskal funktsiyani bajarishga molik bo'ladigan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'imlar asosan ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi va ish bajaruvchilarni rag'batlantirishga undaydi.

Soliq kodeksining 272-moddasiga asosan mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib «Mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilaridir»¹. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs soliq to'lovchidir.

Soliq to'lovchilarni davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1-yanvaridagi holatga ko'ra shaharlar va tumanlar bo'yicha kommunal xo'jalik organlarida hamda mahalla fuqarolar yig'ini pasportlarida mavjud bo'lgan inshootlar egalari haqidagi ma'lumotlarga muvofiq hisobga olinadi.

Mahalliy soliqlar ichida asosiylardan biri hisoblangan yer solig'i bo'yicha soliq to'lovchilar bo'lib, o'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi. Shuningdek, qishloq xo'jalik kooperativlari (shirkatlari), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, shuningdek, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan birga boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq bugungi kunda amalda bo'lgan soliqlar va yig'imlarni quyidagicha ifodalashimiz mumkin.

Ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, amaldagi qonunchilikka muvofiq hozirgi kunda mamlakatimizda mavjud mahalliy soliqlar tarkibi nisbatan ko'p bo'lmay, ular quyidagilardan iboratdir:

¹O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 218-beti.

1. Mol-mulk solig'i;
2. Yer solig'i;¹³
3. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
4. Jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq;

Mazkur soliqlar evaziga to'planadigan mablag'lar bevosita mahalliy byudjetga tushib, mahalliy ahamiyat kasb etadigan tadbirlarni moliyalashtirishga sarflanadi va shu bilan bir qatorda, soliq to'lovchi sub'ektlarni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va ish bajarish faoliyatini rag'batlantirib ham turadi. Soliqlarning mana shunga o'xshash xususiyatlari bir vaqtning o'zida ikki tomonga xizmat ko'rsatadi. Ya'ni, birinchidan, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishga xizmat ko'rsatsa, ikkinchidan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tartibga solib turadi hamda iqtisodiy tomondan rag'batlantirib boradi.

Mahalliy soliqlar bo'yicha soliq tushumlari bir tomondan soliq ob'ekti hajmiga boshqa tomondan esa belgilangan soliq stavkalariga bog'liq bo'ladi. Biroq, barcha mol-mulklar qiymati va barcha yer uchastkalari ham soliq ob'ektiga tortilmaydi.

Soliq Kodeksining 23-moddasiga asosan mol-mulk solig'i va yer solig'idan tashqari mahalliy soliqlar va yig'imlar qayd etilganidek, Qoraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi hokimiyat organlari tomonidan joriy etiladi hamda bu mahalliy soliqlar va yig'imlar stavkalarining eng yuqori miqdorlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, Prezident qarori asosida tasdiqlanadi.

¹³Ushbu soliqlardan mol-mulk va yer solig'i O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan joriy etiladi va mamlakatimiz hududida o'zgartirmasdan undiriladi.

Mahalliy soliqlar va yig'implarning chegaralangan stavkalari¹⁴

N	Soliq va yig'implar turlari	Chegaralangan stavkalar	
		2017 yil	2018 yil
1.	Quyidagilarning iste'moli uchun undiriladigan soliq:		
	benzin	465 sum 1 litrga / 617 700 so'm 1 tonnaga	1 litr uchun 232,5 so'm / 1 tonna uchun 308 850 so'm
	dizel yoqilg'isi	465 sum 1 litrga / 565 000 so'm 1 tonnaga	1 litr uchun 232,5 so'm / 1 tonna uchun 282 500 so'm
	suyultirilgan gaz	230 so'm 1 litrga/ 436 300 so'm 1 tonnaga	1 litr uchun 230 so'm / 1 tonna uchun 436 300 so'm
	siqilgan gaz	275 so'm 1 kub. metr	1 kub metr uchun 305 so'm
2.	Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im**:		
	alkogolli mahsulotlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 5 baravari	Hududlar bo'yicha tabaqalashgan ish haqining 3,0-6,0 baravari
	qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar	1 oylik savdo uchun eng kam ish haqining 3,5 baravari	Hududlar bo'yicha tabaqalashgan ish haqining 2,0-4,0 baravari
4.	Avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im ***	1 oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari	1 oy uchun eng kam ish haqining 8 baravari

*) Ko'rsatib o'tilgan stavkalar miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi. Soliq stavkasining aniq miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taklifiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

¹⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining byudjet parametrlari to'g'risidagi qarorlari asosida tayyorlandi.

**) Yig'imning bir qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar davlat hokimiyati organlari qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda yig'im undirishni ta'minlash bilan bog'liq davlat boshqaruvi organlari xarajatlarini qoplashga, Toshkent shahrida esa Savdo, xizmatlar sohasi va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish departamentini tutib turishga yo'naltiriladi.

**) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiyati organlarining qaroriga binoan yig'imning bir qismi davlat boshqaruvi organlarining yig'imni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda undirishni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarini qoplashga yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosatining markaziy bo'g'inida mahalliy soliqlarni takomillashtirib borish vazifasi turgani bejiz emas, albatta. Biz bitiruv malakaviy ishimizning keyingi paragraflarida mahalliy soliqlardan biri jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i bo'yicha ma'lumotlarni o'rganib chiqamiz.

2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan soliq undirishning uslubiy asoslari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mol-mulkni soliqqa tortish ob'ekti asosan uning kadastr qiymatiga qaratilgan. Bu esa bozor iqtisodiyotining mohiyatidan kelib chiqadi. Ya'ni, bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma narsa sotiladi va sotib olinadi, bepul narsaning o'zi yo'q. Yer va mulk munosabatlarining soliqqa tortilishi O'zbekiston Respublikasining qonun-hujjatlari bilan tasdiqlab qo'yilgan.

Davlatning mol-mulk masalalariga munosabati jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Yaqin vaqtga qadar mulk munosabatlari faqat huquqiy usullar vositasida tartibga solib kelingan. Mulk davlat tasarrufida edi, u mulkning egasi hisoblanardi. Mustaqillikka

erishgach mulkiy munosabatlarda ham tartibga soluvchi bir qator qonun-hujjatlari qabul qilindi. Shunday qilib, mol-mulk solig'ining joriy etilishi bilan mamlakatda mulk munosabatlarini tartibga solishning chinakam iqtisodiy vositasi sifatida namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, mol-mulklarni soliqqa tortishdan asosiy maqsad, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq to'lovchilarni o'z egaligida yoki foydalanishida bo'lgan mulklardan samarali foydalanishiga soliqlar orqali ta'sir etishdir.



**3-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i
to'lovchilari tarkibi¹⁵**

Mol-mulk ob'ektlarini to'g'ri va to'liq aniqlashda, soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlashda davlat soliq inspeksiylarining jismoniy

¹⁵Soliq kodeksi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

shaxslar bilan ishlaydigan bo'limlari ishini to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy shaxslar bilan ishlovchi bo'limlarda tuman hududi uchastkalarga bo'lingan bo'lib, ularning har birida joylashgan ko'chalar, ko'p qavatli uylar, yakka tartibda qurilgan uy-joylar, shuningdek maktablar, do'konlar, korxonalar, aholiga hizmat ko'rsatish ob'ektlari haqida aniq ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'ladi. Kim turar joyini ijaraga berayotgani, kim tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgani va shunga o'xshash axborotlar ancha aniq va qat'i tizimlashtirilgan bo'lishi uchun tumanda joylashgan mahallalarga pasport tizimi joriy qilingan. Mahalla pasportlarida infratuzilma ob'ektlari, xususiy uylar, ko'p qavatli uylar ko'rsatilgan xarita, mahallaning tashkil qilinish tarixi, uning faollari, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, pensionerlarga ko'rsatiladigan yordam haqida qisqacha ma'lumotnoma aks ettirilgan. Bundan tashqari aholi umumiy soni, millati, erkaklar va ayollar soni, oilalar soni, mahalla qo'mitasi, ayollar kengashining faollari haqidagi batafsil ma'lumotlar kiritilgan.

Asosiy vazifasi mahalliy soliqlarning o'z vaqtida va to'liq kelib tushishini ta'minlab berishdan iborat bo'lgan soliqchilarga bularning barchasi zarur emasdek tuyuladi. Ammo hudud bo'yicha ma'lumotlarning to'liq bo'lishi, mahalliy soliqlarni prognoz qilish uchun yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bazasining mavjud bo'lishi muhim hisoblanadi. Masalan, mahalla pasportida 18 yoshga to'lmagan, ya'ni, kelajakda soliq to'lovchilar hisoblanadigan fuqarolar alohida ko'rsatilgan. Ma'lum soliq imtiyozlarga ega bo'lgan nogironlar - «afg'onchi»lar, «chernobilchi»lar ham guruhlariga ajratilgan. Shunday holatlar ham bo'ladiki, imtiyoz egasi turar joyini o'zgartirsa ham oila imtiyozlardan foydalanishda davom etaverishi mumkin.¹⁶

Uchastka soliq inspektorlari qanchalar faollik ko'rsatmasinlar, uchastkalardagi ro'y berayotgan o'zgarishlarning barchasini kuzatib borishga baribir imkoniyatlari etmaydi. Kimdir tug'iladi, kimdir dunyodan ko'z yumadi, uylanadi, mashina, dala hovli, yer uchastkasini sotib oladi, boshqa uyga ko'chib

¹⁶ Abdurahmonov O. Jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish. //Bozor, pul va kredit. 2012 yil 7-son. 29-31 bet

o'tadi. Bunga misollar ko'p. Shulardan kelib chiqib jismoniy shaxslarni soliqqa tortishning o'ziga xos jihatlari mavjuddir.

Pasportlashtirish bilan bir qatorda keng miqyosda soliq to'lovchilarni kadastrlash ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa mol-mulk va yer soliqlarini kelib tushishi ko'rsatkichlarini anchagina ko'paytirish imkonini beradi. Rezervlar qayerdan olinadi? Shaharda yakka tartibda uy-joy quruvchilar uchun yer uchatkalari uchun beriladigan, aholisi zich bo'lmagan hududlar ham bor. Aytaylik, hokimiyat yer maydonini ajratib ham berdi, uning egasi esa uy-joyini bitkazishga aslo shoshilmaydi. Ro'zg'ori, yashash joyi bor bo'lsa. Biroq, yer solig'ini baribir to'lashi zarur. Bundaylarni hokimiyat orqali izlashga to'g'ri keladi.

Boshqa misol yangi qurilgan turar joylar bilan bog'liq. Ma'lumki, yangi uy olganlarning hammasi ham ko'chib kirishga shoshilavermaydi. Tabiiyki, mol-mulk solig'ini ham muddatida to'lamaydilar, ularni boshqa manzillardan izlashga to'g'ri keladi. Shaharda turar joy fondi bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarning orderlarini berish bilan bir vaqtning o'zida ularning egalari haqida soliq organlarini ham xabardor qilishlari zarurligini tasdiqlovchi yana bir o'ziga xos jihat shundan iborat. Bu bir vaqtning o'zida bir necha kvartiralarga egalik qiluvchilar uchun ham taalluqli.

Mahalla yig'inlari yordamida uylar bo'yicha o'tkaziladigan batafsil xatlov yashirin tsexlarni, ya'ni o'z bizneslarini rasman rasmiylashtirishni, boshqa zarur hujjatlarga ega bo'lishni «unutib qo'ygan» tadbirkorlar aniqlanadi.

2.3. Jismoniy shaxslar mol-mulklaridan olinadigan soliqni hisoblash va undirish tartibining tahlili

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy byudjetga undiriladigan asosiy soliqlardan biri hisoblanadi. Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i mahalliy byudjet daromadlarini doimiy shakllantirib turuvchi barqaror manba bo'lganligi uchun undiriladi. U fiskal funktsiyani bajarib, davlat byudjeti daromadlarini to'ldiradi. Shunday qilib mazkur soliqning ahamiyati davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi salmog'i bilan asoslanadi.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining yana bir ustun jihati shundaki, bu uning soliq bazasining identifikatsiyasi bilan bog'liq, ya'ni soliq ob'ektining qat'iyligidadir. Shuning uchun ham mol-mulkni soliq to'lashdan qochish maqsadida yashirish qiyin va soliqqa tortish maqsadida uni qiymatini aniqlash egasining xoxishidan kelib chiqmaydi.

Quyida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilamiz.

4-jadval

Shayxontohur tumani mahalliy byudjetida mol-mulk solig'ining tutgan o'rni¹⁷

(mln.so'mda)

Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil	
	summa	%	summa	%	summa	%
Mahalliy byudjetning jami soliqli daromadlari	76029,4	100	80145,2	100	87259,4	100
Mahalliy byudjetga tushadigan mol-mulk solig'i	1824,7	2,4	2083,7	2,6	2530,5	2,9

¹⁷Shayxontohur tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, mol-mulk solig'ining Shayxontohur tumani mahalliy byudjet jami daromadlaridagi ulushi ancha kam. Mol-mulk solig'ining mahalliy byudjet daromadlaridagi salmog'i yillar bo'yicha tahlil qilinganda sezilarli o'zgarish 2017 yilda kuzatiladi. 2015 yil umumiy daromadda 2,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yil 2,6 foizdan iborat bo'lgan. Buning sababi jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i tushumlarining ko'payganligi bilan izohlanadi. 2017 yilda esa mol-mulk solig'i daromadlar tarkibining 2,9 foizini tashkil qilgan. Boshqa soliq turlari singari jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini mavjud mexanizmini nazariy jihatdan tahlili bu soliq turini undirishni yanada takomillashtirilishi lozim degan xulosani chiqarishga imkon beradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortishning umumiy rivojlanish tamoyillari soliqlar sonini qisqartirish, mol-mulkdan olinadigan soliqlar rolini oshirish, soliq majburiyatlarini asta-sekinlik bilan korxonalar zimmasidan jismoniy shaxslar zimmasiga o'tkazish zarurligiga asoslanadi. Bu tamoyillar ko'p yillik taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan.


O'zbekiston byudjet daromadlari shakllantirilishida mol-mulk solig'ining miqdori va o'rni hozircha unchalik yuqori emas.

Birinchidan, bu soliqlar mukammal xarakterga ega bo'lmagani uchun ularga etarli e'tibor berilmagan.

Ikkinchidan, jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq mahalliy byudjetlarning daromadini tashkil etadi.

Soliq kodeksining 273-moddasiga muvofiq soliqqa tortiladigan ob'ektga: O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar kiradi hamda yuqoridagilar bo'yicha jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilaridir.

Respublika fuqarosi, boshqa davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs, O'zbekiston rezidenti yoki norezidenti bo'lishidan qat'iy nazar soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.



4-rasm. **Mol-mulk solig'i bo'yicha soliq ob'ekti va bazasi**¹⁸

Soliq solish ob'ekti - bu sub'ektning soliq to'lash majburiyatini shart qilib qo'yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol-mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil hisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniga ko'ra soliq solish ob'ektiga yaqin) - bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy xususiyatdagi belgilardir. Masalan, uy, kvartira kabi mol-mulk uchun mulkchilik huquqi ob'ekti bo'ladi, uy yoki kvartiraning o'zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi va h.k.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda 478-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartiralar (shu jumladan xususiylashtirilgan kvartiralar), garajlar, boshqa imoratlarni baholash va qayta baholash uchun yagona funktsional ko'rsatkich-imorat, bino umumiy maydonning kvadrat metri belgilanadi. Bu esa soliq solish birligidir.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda,

¹⁸Soliq kodeksi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

Bitta jismoniy shaxs bir nechta soliq solish ob'ekti bo'yicha to'lovchi bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza har bir ob'ekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 275-moddasi soliq bo'yicha imtiyozlarga ega bo'lgan shaxslar doirasini tartibga soladi. Uning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, qonun chiqaruvchi har qanday mol-mulk solig'idan ozod etiladigan jismoniy shaxslarning qator toifalarini ajratadi, jismoniy shaxslarning boshqa guruhlariga esa, faqat imoratlar, binolar va inshootlar uchun soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar beradi.

Mol-mulk solig'idan imtiyoz olish huquqiga ega bo'lgan kishilar soliq xizmati organlariga zarur hujjatlarni taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq uning har yili 1 yanvar holatiga ko'ra ro'yxatga olish (inventarizatsiya) qiymatiga nisbatan foiz hisobida hisoblab chiqariladi. Agar imoratlar, binolar va inshootlarning ro'yxatga olish qiymati haqidagi ma'lumotlar bo'lmasa, u holda soliq ushbu mulkning davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha summalarni hisoblash uchun belgilangan qiymatidan, shuningdek, har yilning 1 yanvar holatiga ko'ra baholanishidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning mol - mulk solig'i stavkasini har yili kelgusi moliya yili uchun O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti parametrlari va asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tasdiqlangandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi.

**Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk
solig'i stavkalari¹⁹**

N	Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi	Soliq stavkasi, mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan %da*	
		2017 yil	2018 yil
1	Turar joylar, kvartiralar (bundan umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	1,7	0,2
2	Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:		
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	2,1	0,25
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	2,9	0,35
3	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.metr dan oshiq bo'lgan turar joylar va kvartiralar	2,1	0,25

*) Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000 ming so'mdan kam bo'lmasligi kerak.

Izohlar:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash organlari belgilagan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent va Nukus shaharlari, shuningdek viloyat markazlarida 210 000 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda - 90 000 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-son va 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-son qarorlaridan olingan.

2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

3. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m hajmida belgilanadi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob'ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ular yuridik shaxslarga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fondi toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Jismoniy shaxslar tomonidan soliq solinadigan ob'ektlardan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilganda yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob'ektlari noturar joy fond toifasiga o'tkazilganda yoki ular tomonidan noturar joy fondi ob'ektlari (binolar, binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanadi.

Soliq kodeksining 275-moddasiga binoan jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i yuzasidan bir qator imtiyozlar taqdim etilgan bo'lib, quyidagilarning mulkiga soliq solinmaydi:

1) «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning. Mazkur imtiyoz tegishincha «O'zbekiston Qahramoni» unvoni

berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslarning. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) o'n nafar va undan ortiq bolalari bor ayollarning. Mazkur imtiyozni berish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining bolalar borligini tasdiqlovchi ma'lumotnomasi asos bo'ladi;

4) pensionerlarning. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi asosida beriladi;

5) I va II guruh nogironlarining. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilar hamda ichki ishlar organlari xodimlari otalarining va beva xotinlarining (beva erlarining). Imtiyoz «Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» yoki «Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)» shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma

asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi.

3, 4 va 5-bandlarida ko'rsatilgan imtiyozlar qonun hujjatlarida belgilangan soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida beriladi.

Belgilangan imtiyozlar mulkdorning tanlashiga binoan faqat bir mol-mulk ob'ektiga taalluqli bo'ladi.

Mazkur imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilgan soliq solish ob'ektlariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchining yashash joyidan qat'i nazar, soliq solish ob'ekti joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlari tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organning ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Amaldagi Kodeksning 275-moddasida ko'rsatilgan imtiyozlarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar imtiyozlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadilar.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi mol-mulkning 1 yanvarga bo'lgan holatiga ko'ra kadastr qiymatidan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Bir nechta mulkdorning umumiy ulushli mulkida bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mulkdorlarning har biri tomonidan ularning ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi.

**Shayxontohur tumanida jismoniy shaxslar mol-mulklaridan
soliq undirish ko'rsatkichlari²⁰**

T/R	Ko'rsatkichlar	2017 yil 1 may holatiga
1.	Mol-mulk solig'i ob'ektlari soni	47546
2.	Hisoblangan soliq summasi (mln.s.)	2644,2
3.	Imtiyoz berilgan mol-mulk ob'ektlari soni	11975
4.	Imtiyoz berilgan mol-mulk ob'ektlariga nisbatan hisoblangan soliq summasi (mln.s.)	608,1
5.	Soliqqa tortiladigan mol-mulk ob'ektlari soni	35571
6.	Hisoblangan soliq summasi (mln.s.)	2036,0
Jumladan:		
	-pensionerlarga tegishli maydoni 60 kv.m.dan ortiq bo'lgan mol-mulk ob'ektlari soni	2841
	-pensionerlarga tegishli maydoni 60 kv.m.dan ortiq bo'lgan mol-mulk ob'ektlariga nisbatan hisoblangan soliq summasi (mln.s.)	213,0
	-tadbirkorlik maqsadida foydalanilayotgan mol-mulk ob'ektlari soni	126
	-tadbirkorlik maqsadida foydalanilayotgan mol-mulk ob'ektlariga nisbatan hisoblangan soliq summa (mln.s.)	185,4

Jadval ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Shayxontohur tumanida jismoniy shaxslarning mol-mulklaridan soliq undirish bo'yicha 2017 yilning 1 may holatiga tumanda 47546 ta soliq to'lovchi ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 11975 tasi mol-mulk solig'idan imtiyoz olganlar hisoblanadi. Imtiyoz taqdim etilgan mol-mulklardan soliq summasi 608,1 mln. so'mni tashkil qiladi. Soliq undiriladigan sub'ektlar soni 35571 tani tashkil etib, ulardan undiriladigan mol-mul solig'i summasi 2036,0 mln. so'mdan iborat. Soliqqa tortiladigan mol-mulklar tarkibida pensionerlar tasarrufida bo'lgan maydoni 60 kv.m.dan ortiq bo'lgan mulk ob'ektlari 2841 tani tashkil etib, ulardan undiriladigan soliq summasi 213,0 mln. so'mdan iboratdir.

Mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi kalendar yil mobaynida bir mulkdordan boshqasiga o'tgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mulkiga solinadigan soliq

²⁰Shayxontohur tuman DSI ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

avvalgi mulkdor tomonidan shu yilning 1 yanvaridan e'tiboran u mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar, yangi mulkdor tomonidan esa unda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ular barpo etilgan yildan keyingi yil boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulk uchun jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq merosxo'rlarda mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanadi.

Soliq solish ob'ekti yo'q qilingan, vayron bo'lgan, buzib tashlangan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Soliq summasini qayta hisob-kitob qilish mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan yo'q qilinganlik, vayron bo'lganlik, buzib tashlanganlik faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, amalga oshiriladi.

Kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelgan taqdirda, jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilish ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran amalga oshiriladi.



5-rasm. **Mol-mulk solig'ini to'lash bo'yicha tashkiliy ishlar majmuasi**²¹

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi soliq to'lovchilarga davlat soliq xizmati organi tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq davri uchun to'lash hisobot yilining 15 oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

Soliq ortiqcha to'langan bo'lsa, kelgusi davr qarzlariga etkaziladi yoki yozma arizasiga binoan boshqa soliq va yig'imlardan qarzi bo'lmasa 30 kun ichida qaytariladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli - kadastrli usul hisoblanadi. Soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashqi belgilari, mo'ljallanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqti daromadni olish vaqti bilan hech qanaqa bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash

²¹ Soliq kodeksi asosida tayyorlangan.

uchun qat'iy muddat belgilanadi. Jismoniy shaxs mol-mulk solig'ini to'lagandan so'ng soliq inspektori tomonidan mol-mulk solig'ini to'langanligi to'g'risida ikki nusxada patta yoziladi va bir nusxasi soliq to'lovchiga beriladi. Mazkur soliq bo'yicha to'lovlar faqatgina mahalliy byudjetga o'tkaziladi.

2-bob bo'yicha xulosa

-mahalliy byudjetlarning mavqeini yanada oshirish hukumatning byudjet siyosati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan muhim omil ekanligi ahamiyatga molikdir. Budjet-soliq siyosati borasida olib borilayotgan o'zgarishlarning markazida budjet daromadlari va xarajatlarining muvofiqligini ta'minlash hamda ular samaradorligini oshirish masalalari turadi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar moliya tizimini, ya'ni shu bilan birga soliq siyosatini ham qayta ko'rib chiqishni taqoza etmoqda.

-mol-mulk ob'ektlarini to'g'ri va to'liq aniqlashda, soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlashda davlat soliq inspeksiylarining jismoniy shaxslar bilan ishlaydigan bo'limlari ishini to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyat kasb etadi.

-jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining yana bir ustun jihati shundaki, bu uning soliq bazasining identifikatsiyasi bilan bog'liq, ya'ni soliq ob'ektining qat'iyligidadir.

-jismoniy shaxslarning mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish ob'ektining bahosi mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkning qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan bazadir.

3-BOB. JISMONIY SHAXSLAR MOL-MULKLARIDAN SOLIQ UNDIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

3.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini undirishdagi muammolarni bartaraf etish masalalari

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda barcha boyliklar, shu jumladan, har bir xo'jalik sub'ektlarining mol-mulklarini ham to'g'ri hisobga olib borishni talab etadi. Sababi, har bir xo'jalik sub'ektlarining mulki muayyan davlat hududida shakllanganligi tufayli mazkur davlatga daxldordir. Demak, xususiy mulk mamlakat umum mulkining bir qismi. Shu tufayli davlat xususiy mulkning daxlsizligini ta'minlashi va uni qonuniyligini nazorat qilishi lozim bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida xususiy mulk daromad olish maqsadida o'z mol-mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish huquqlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Davlat xususiy mulkni soliqqa tortish yo'li bilan fuqarolar mulkining qonuniyligi va uning harakatini nazorat qilib boradi. Bu esa davlat hududidagi barcha mol-mulkning to'g'ri hisob-kitobini yuritish va ulardan tegishli miqdorda soliq undirib borish mexanizmini yaratishni taqozo etadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkidan soliq undirish nazarda tutilgan.

Mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar orasida mol-mulk solig'ining ham o'z ahamiyati va o'rni bor.

Mol-mulk solig'ining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati:

birinchidan, jamiyat boyligi, u kimga tegishli bo'lishidan qat'i nazar soliqqa tortish mexanizmi bilan mol-mulkning hisob-kitobi olib boriladi;

ikkinchidan, boylikning muayyan qismi davlat byudjetiga uning - xarajatlarini moliyalashtirish maqsadida qonunlarda belgilangan tartibda qayta taqsimlanadi.

Davlat yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkining ko'payishidan manfaatdor. Shu tufayli davlat ushbu mulklar daxlsizligini ta'minlashni, uning butligiga kafolat berishni o'z zimmasiga oladi.

Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati davlat byudjetining shakllanishi va uning daromad qismini ko'payishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy yo'naltirilgan sotsial bozorni shakllantirish uchun byudjet daromadlarining mazkur turi ham ma'lum salmoqqa ega.

2015-2017 yillarda jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulklaridan olingan soliq jami mahalliy byudjet tushumlaridagi salmog'ini tahlil qilganimizda 2015 yilda 12,7 foizini, 2016 yilda 15,5 foizni 2017 yilda 16,9 foizni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Tahlil ma'lumotlari, yuridik va jismoniy shaxslarning mol- mulklaridan olinadigan solqlar bo'yicha soliq solish ob'ektlarini aniqlash va to'lash tartiblarida bir qator muammolar borligidan dalolat beradi.

Amaldagi Soliq kodeksining 272 va 273-moddalariga muvofiq, mulkida soliq solinadigan mol-mulki bo'lgan jismoniy shaxslar, shu jumladan chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisoblanadi.

Ularning o'z egaligidagi uy joylar, kvartiralar, dala hovli imoratlari, garajlar va boshqa imoratlar, joylar, inshootlar esa soliq solish ob'ektlari hisoblanadib, ushbu mulklarning ro'yxatdan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilangan kadastr qiymati soliqni hisoblash bazasi bo'ladi.

Agar jismoniy shaxslar mol-mulkining kadastr qiymati bo'lmagan hollarda, soliq hisoblash maqsadida mol-mulkning shartli qiymati asos qilib olinadi.

Amaldagi tartib jismoniy shaxslar mol-mulklarining haqiqiy bozor qiymatini belgilamaydi. Sababi, bozor munosabatlari sharoitida narxlarning keskin o'zgarishi, raqobatning rivojlanib borishi natijasida mol-mulk qiymatining ham o'zgarishi tabiiy holdir. Bu o'zgarishlar jamiyat miqyosida to'g'ri hisobga olib borilishi va har

bir sub'ekt mol-mulkning qiymatini qayta baholash va soliqqa tortishda shu o'zgarishlarni inobatga olishning zarur talab qilinadi.

Keyingi yillarda davlat byudjeti parametrlari qabul qilinishida jismoniy shaxslar mol-mulklarining qiymati bozor konyukturasidan kelib chiqib indeksatsiya tartibi yo'lga quyildi.

Jumladan. Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 29 dekabrda "Jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan binolar va inshootlarni baholash, qayta baholash to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 478-son qarori asosan 2009 yil uchun mahamlliy hokimliklar qarori bilan jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarning qiymati 1998 yildagi qiymatiga nisbatan o'rtacha 8,57 ko'effitsientga indeksatsiyalandi, shuningdek Prezidentimizning 2009 yil 22 dekabrda 1245-son qarori bilan jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulklarning 2009 yildagi qiymati 1,1 ko'effitsientga indeksatsiya qilindi.

Prezidentimizning 2010 yil 24 dekabrda PQ-1449-son qarori bilan jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalar amaldagi 0,5 foizdan 0,75 foizga oshirildi. Shu bilan birga, shaharlarda uy-joy va kvartiralar maydoni miqdoridan kelib chiqib, belgilangan stavkaga oshiruvchi ko'effitsientlarni qo'llash tartibi joriy etildi. Unga muvofiq maydoni 200 kv.m.dan 500 kv.m.gacha 0,9 foizlik va 500 kv.m.dan ko'p bo'lganda esa 1,13 foizlik stavkada mol-mulk solig'i undirilishi belgilandi.

Lekin ushbu tartib ham mol-mulklarini soliqqa tortishdagi muammoli tomonlarini to'liq bartaraf etmaydi.

Shu sababli, bizning fikrimizcha, respublika buyicha barcha maydonlarning hududlar (shaxar, tuman va qishloq aholi punktlari) kesimida to'liq kartografik asosini tuzib chiqish;

- mol-mulk, yer soliqlarini to'lovchilar va soliqqa tortish ob'ektlarini kadastrdan o'tkazish hamda yagona davlat reestrini tuzish;

- kuchmas mulk va yer maydonlarini yoppasiga kadastrdan o'tkazish bilan bir vaqtda ularni bozor narxlaridan kelib chiqib yalpi baholashni ham amalga oshirish.

Mazkur tadbirlarni amalga oshirish uchun amaldagi huquqiy bazaga qo'shimcha ravishda:

- yerlarni bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastr bahosida baholash bo'yicha baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan bino va inshootlarning bozor bahosida yalpi baholash bo'yicha baholash uslubiyatini ishlab chiqish;
- jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mulk ob'ektlarining bozor bahosida yalpi baholash bo'yicha baholash uslubiyatini ishlab chiqish.

Rossiya Federatsiyasida jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tartibiga karasak, jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i Rossiya Federatsiyasida «ko'chmas mulkga mahalliy soliq» deb ataladi. Ushbu soliq RF Soliq Kodeksining xamda mahalliy hokimiyatning xuquqiy-normativ xujjatlarga asosan belgilanadi, ya'ni shaxar okruglari, mahalliy xokimiyat organlari Soliq kodeksida belgilangan soliq stavkasidan oshmagan holda soliq stavkasi, soliqqa tortilmaydigan minimum, to'lash muddatlari va tartibini ishlab-chiqarish xuquqiga ega bo'lib, ushbu soliq ushbu munitsipal to'zilma xududida to'lashga majbur hisoblanadi. Soliq to'lovchilar bo'lib egaligida ko'chmas mulklari mavjud bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq ob'ektiga turar joylar, yashash fondiga kiruvchi ko'chmas mulklar, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan garajlar, dala-xovli va bog' yer uchastkalari, turar joylar va yashash fondiga kiruvchi ko'chmas mulklar joylashgan yer uchastkalari, turar joylar va yashash fondiga kiruvchi ko'chmas mulklarni qurish uchun ajratilgan er uchastkalari kiradi.

Soliq ob'ekti bo'lib qo'yidagilar hisoblanmaydi, ya'ni Davlat va munitsipal uy-joy fondiga kiruvchi mulklar hamda ushbu mulklar joylashgan yer uchastkalari, shuningdek mahalliy boshqaruv hokimiyat organlariga soliqqa tortilmaydigan ob'ektlarni ko'shimcha kiritish huquqi berilgan.

Soliq bazasi bo'lib, ko'chmas mulklarning baholash qiymati hisoblanadi. Ushbu qiymat soliq yili 1-oyining 1-sanasiga olinadi. Ushbu ko'chmas mulklarni baholash va qayta baholash mahalliy hokimiyat-boshqaruv organlari xo'zuridagi

maxsus tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Baholash va qayta baholash qo'yidagicha amalga oshiriladi:

- ko'chmas mulklarni baholash qo'yidagi bozor qiymatiga asosan qilinadi. Buning uchun: - bozordagi mulklarni narxlari muntazam olinib, tahlil qilinadi (bitim-shartnomalar narxi, sotuvga qo'yilgan narxlar va hakoza)

- to'liq kadastrdan o'tkaziladi

- 5-yilda kamida bir marotaba mulklarni baholanishi va qayta baholanishi ustidan (sifati jihatidan) monitoring tekshirishlar o'tkazilib boriladi. Bunda RF hukumati tomonidan qabul qilingan metodologik qo'llanmasiga asosan baholash tartibiga to'liq rioya qilinadi

- butun RF bo'yicha bozorlardagi mulklarni bozor narxlari bo'yicha ma'lumotlar olinib, tahlil qilinib, baholashda foydalanish uchun muntazam taqdim etib turiladi

- baholash va qayta baholash uchun sarf-xarajatlar ushbu soliq turidan tushum ko'payishi hisobiga qoplanadi.

Soliq to'lovchi - jismoniy shaxs uchun (o'y-joy buyicha) soliq bazasi soliq chegirmasi hisobiga kamaytiriladi. Soliq chegirmasi ushbu fukaro bilan birga yashovchi jismoniy shaxslar sonidan va soliqqa tortilmaydigan normadan kelib chiqib hisoblanadi. Soliqqa tortilmaydigan norma mahalliy xokimiyat-boshqaruv organlari tomonidan ushbu munitsipal to'zilma xududidagi 5 kv.m yashash maydonining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi. Agar ushbu soliq chegirmasi (soliq yili davomida) ko'chmas mulklar qiymatidan ortib ketsa, soliq bazasi ushbu davr uchun «0» ga teng deb hisoblanadi. Agar mulklar (ko'chmas) ikki va undan ortiq jismoniy shaxslarga tegishli bo'lsa xar biriga mulkdagi ulushiga proporsional ravishda hisoblanadi. Notariuslar va boshqa xuquqni ro'yxatga oluvchi adliya tashkilotlari oldi-sotdilar eki bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan muddat va shakllarda mulklarni baholash va qayta baholash organlariga taqdim etib turadilar.

3.2. Jismoniy shaxslar mol-mulkalaridan olinadigan soliqni takomillashtirish yo'nalishlari

Darhaqiqat, aytib o'tish joizki, mamlakatimiz rahbariyati tomonidan respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosatida soliq to'lovchilarda mas'uliyat hissini, soliqlarning maksadli yo'naltirilganligini anglash hissini shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifalar ham belgilangan. Chunki soliq to'lovchilar nima uchun soliq to'layotganliklari, ularning miqdori nima sababdan oshgani yoki kamaytirilganligini yaxshi tushunishlari kerak. Mazkur vazifani eng muhimi soliqlar ta'lim, sog'liqni saqlash tizimlarini, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish orqali oxir-oqibat soliq to'lovchilarning o'ziga qaytishi va ularning manfaatlariga xizmat qilishini anglashlari lozim edi. Bozor munosabatlari, xo'jalik yuritishning yangi shakllari rivojlanishi bilan soliq qonunchiligi zikr etilgan tamoyillardan kelib chiqadigan hamda islohotlarning tegishli bosqichi sharoitiga mos keladigan jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Shu tarzda yangilanish va islohotlar tufayli respublikamizda byudjetning daromad qismining barqaror shakllanishini ta'minlovchi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi rejali, xalqaro tamoyillarga mos keladigan soliq tizimini joriy qilish boshlandi.

Bozor iqtisodiyotining o'zini-o'zi tartibga soluvchi mexanizmlarining istiqbolli ekanligi va bunda davlat ixtiyorida faqat iqtisodiy vositalar hamda rag'batlar saqlanib qolinishi va ularning tarkibiy qismi soliqlar ekanligi ilmiy qarashlarda ko'p bora ta'kidlangan.

Har qanday mamlakatda qanday soliq siyosati yuritilayotgani va soliqqa tortish sohasidagi chora-tadbirlar qanchalik samarali ekanligi ko'p jihatdan iqtisodiy islohotlarning xarakteri va dinamikasini belgilaydi. Oqilona tashkil etilgan, yaxshi muvozanatlangan soliq tizimi, bozor iqtisodiyoti taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning hamda shu asosda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning asosiy vositalaridan biridir. Chunki davlat moliyaviy siyosati makroiqtisodiy siyosatning

muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning mohiyati davlat va jamiyat oldiga qo'yilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda boshqa strategik maqsadlarni ro'yobga chiqarishga qo'llaniladigan iqtisodiy, huquqiy va boshqa vositalar, usullar yunalishlarining belgilanishi, real shart-sharoitlar aniq hisobga olingan holda, ulardan foydalanishga qaratilgandir.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan “yangi soliq siyosati doirasida soliq tushumlari tarkibini tubdan o'zgartirish, resurslar, mol-mulk solig'ining rolini oshirish, jismoniy shaxslardan soliq undirishning progressiv tizimini joriy etish vazifasi qo'yiladi”. Moliyaviy siyosatning eng muhim tarkibiy qismi sifatida soliq siyosati katta ahamiyatga ega. Bu sohada davlat siyosati davlat uchun ham, bozor ishtirokchilari, tadbirkorlar va boshqa fuqarolar uchun ham maqbul keladigan shart-sharoitlarning yaratilishiga iqtisodiyotning real sektori ahvolini yaxshilashga qaratilmog'i lozim.

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uni takomillashtirish yo'lida mamlakatimizda umumiy vazifa sifatida quyidagi masalalar qo'yilgan:

- hozirgi kunning davr talabi bo'lgan umumiy soliq yukini kamaytirish;
- yuridik foydasini soliqqa tortilishini takomillashtirish;
- byudjet daromadlarini barqaror shakllantirishda bilvosita (egri) va bevosita (to'g'ri) soliqqa tortish samaradorligini oshirish;
- resurs soliqlarini salohiyatini oshirish;
- soliq tizimini sodda va tushunarli bo'lishini ta'minlash.

Soliqlarni undirishning takomillashganligi uning adolatlilik printsipligiga mosligida, to'lovchiga tushunarligida, soliq to'lovchining soliqdan qochmasligida va soliqlarni o'z vaqtida to'lashligida hamda soliqni hisoblashda qulay, optimal va kam harajat qilib undiriladigan variantning tanlanganligida namoyon bo'ladi.

Barcha soliq turlari singari jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk va yer solig'ini mavjud mexanizmini nazariy jihatdan tahlili bu soliq turini undirishni ham yanada takomillashtirilishi lozim degan xulosani chiqarishga imkon beradi.

Qayd etish lozimki, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer solig'ini undirish mexanizmi boshqa soliq turlarini undirish mexanizmidan bir muncha farq

qiladiki, bu farq ularning biroz murakkabligi bilan tavsiflanadi. Biz bu yerda murakkablik deganda soliqni hisoblashni emas, balki, bu soliq turlarini undirish mexanizmini nazarda tutyapmiz. Masalan, jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i yoki tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad solig'ini undirish jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'iga nisbatan oson va qulayligi bilan ajralib turadi. Chunki, daromad solig'i shaxs ishlaydigan tashkilot tomonidan ushlab qolinsa, tadbirkor o'z faoliyatini to'xtatmaslik uchun qat'iy soliqni o'zi ma'suliyat sezgan holda to'lashga harakat qiladi. Bu soliq xizmati organlari ishini engillashtiradi. Ammo, jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer solig'i xususida bunday fikrni keltirish unchalik o'rinli emas. Sababi, aholi yuqorida sanab o'tilgan soliqlarga nisbatan mol-mulk va yer solig'ini to'lashdan manfaatdorlik darajasi past, shu sababli ular bu soliqni o'z vaqtida to'lashga harakat qilmaydilar. Bu holatlar shunday hulosaga olib keladiki, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig'ini takomillashtirishda ushbu soliqlarni undirish bilan bog'liq jarayonlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Hozirgi kunda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini muammoli jihatlaridan biri uni to'liq ro'yxatga olish va qiymatini baholashdadir. Mol-mulkni ro'yxatga olish va qiymatini baholash bilan texnik inventarlash byurosi shug'ullanadi. Texnik inventarizatsiya byurosi tomonidan aniqlangan umumiy kadastr qiymati esa jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliqqa tortish bazasi bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, kadastr tomonidan baholangan mol-mulk qiymati hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitidagi bahoga to'g'ri kelmaydi. Chunki jahon amaliyotida soliqni hisoblab chiqarishda mol-mulkning bozor bahosi asos qilib olinadi. Mol-mulkni kadastr qiymati asosida baholashda uning bozor bahosidan kelib chiqmaydi va natijada baholangan qiymat haqiqiy bozor bahosidan kam bo'lib chiqadi. Bu esa o'z navbatida byudjetga tushadigan soliq tushumlariga ta'sir etadi.

Mol-mulk qiymatining aniq baholanmasligi, uning haqiqiy qiymatidan past bo'lishga olib keladi. Buni asosan uy-joy, dala-hovli uylarni baholashda ko'rish mumkin. Mol-mulk qiymatining aniq baholanmasligi natijasida mahalliy byudjetga

jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlarning kamayishiga olib keladi. Bu kabi kamchiliklarni oldini olish uchun esa mol-mulkni o'z vaqtida, to'liq ro'yxatga olish va baholash lozim.

Mol-mulkni kadastr qiymati bo'yicha baholashdagi salbiy jihatlar oldi-sotdi jarayonida yuzaga chiqadi. Mol-mulkning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish chog'ida soliq to'lamaslik yoki soliq summasini kamaytirish maqsadida oldi-sotdi hujjatlari kadastr qiymati bo'yicha rasmiylashtiriladi. Ammo haqiqatda amalga oshiriladigan bitim esa bozor bahosida tuziladi.

Shunday qilib, mol-mulkning kadastr qiymati pastligi tufayli, soliqqa tortish maqsadlarida kvartira va boshqa ko'chmas mulk ob'ektlari bahosini bozor bahosi bilan almashtirib, amaldagi soliq stavkalarini saqlab qolish soliq summasini bir necha baravar oshib ketishiga olib keladi. Buning uchun amaldagi soliq stavkalarini ham qaytadan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Ya'ni bozor qiymati asosida baholashga o'tilganda mulkning bahosi oshadi va amaldagi soliq stavkalarini pasaytirishga to'g'ri keladi. Shunday qilib, soliqni hisoblab chiqarishga mol-mulkning bozor bahosi asos qilib olinsa, soliq samarali ishlaydi.

Frantsiya, Ispaniya Shvetsiya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsariya kabi davlatlarda jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i progressiv stavka bo'yicha undiriladi, mol-mulk qiymati tabaqalashgan, soliqqa tortilmaydigan minimum ham belgilab qo'yilgan. Progressiv stavkada mol-mulk qiymatining ko'payishi bilan soliq stavkasi ham oshib boradi. Bizda esa jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini undirishda proportsional stavka qo'llaniladi. Bunda mol-mulk ob'ekti qiymatidan qat'iy nazar bir xil stavka qo'llaniladi. Agar O'zbekistonda ham jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini proressiv stavka bo'yicha undirilsa, mahalliy byudjet daromadlarida mol-mulk solig'i ulushining oshishiga olib keladi. Progressiv stavka qo'llanilganda mol-mulk qiymati tabaqalashtiriladi va kam mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar past stavkada soliq to'laydi, ko'p mol-mulkka ega bo'lgan soliq to'lovchilar esa yuqoriroq stavkada soliq to'laydilar. Bunday stavkani qo'llashda kam ta'minlanganlar ijtimoiy himoyalanadi. Mazkur soliqni undirishdan asosiy

maqsad mahalliy byudjet daromadlarini to'ldirish bo'lgani uchun ham progressiv stavkani qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimum qiymatini belgilashda soliq to'lovchi joylashgan hududning rivojlanganlik darajasi, oila a'zolarining soni, soliq to'lovchining ijtimoiy ahvoli, to'lovga qobiliyatlilik darajasi kabi turli xil omillarga e'tibor berish kerak. Shunday qilib, madaniy va hatto, iqtisodiy nuqtai nazardan saqlab qolinishi kerak bo'lgan minimal qulaylik soliqqa tortilmasligi kerak.

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga hisoblangan soliq summasini, ular ishlaydigan korxona, tashkilotlarda hisoblangan ish haqidan to'lanishini yo'lga qo'yish taklifini beramiz. Bunday to'lash usuli davlatga foydadan holi emas. Chunki bunday to'lash usuli soliq summasini byudjetga tushishini o'z muddatida amalga oshiradi hamda ushbu soliq turini undirishdagi xarajatlarni kamaytiradi. Shuningdek, bu soliq turini jismoniy shaxslar tomonidan to'lamaslik hollari keskin qisqaradi. Soliq summasi teng ulushlarda oylar bo'yicha taqsimlangan holda davlat soliq inspeksiyasi hisobraqamiga o'tkaziladi. Bunda oylar bo'yicha taqsimlangan soliq summasining og'irligi soliq to'lovchiga sezilmaydi.

Hozirgi kunda jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining muammoli jihatlaridan biri uni to'liq ro'yxatga olishdir. Soliq xizmati organlari jismoniy shaxslar mol-mulkklarini to'liq ro'yxati va hisobini yuritishlari lozim. Natijada soliq to'lovchilar soni va mahalliy byudjetga hisoblangan soliq summasi oshadi.

Ijtimoiy himoyani yanada kuchaytirish maqsadida ko'pgina xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan mol-mulk solig'iga tortilmaydigan mol-mulkning minimum qiymatini ham amalga kiritish kerak. Bunda kam ta'minlangan va o'rtahol aholi qatlamlari uchun soliq yukini kamaytirish, ko'pchilik hollarda esa istisno etish uchun ham mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimal qiymatini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mol-mulkning muayyan miqdori va turi odamlarning zaruriy hayotiy ehtiyoji hisoblanadi. Bunda mol-mulkning zaruriy minimumi soliqqa tortishdan ozod qilinishi kerak va zaruriy ehtiyojdan ortib qolgan qismi soliqqa tortilishi kerak.

Ichki daromad kodeksi bilan ishlaydigan soliq mutaxassislari uning miqdori va murakkabligini yaxshi biladilar. Shuningdek, ularning ko'pgina qoidalarining o'zaro bog'liqligi mavhum ma'noga ega. Biroq, miyamiz tezlik bilan soliq munosabatlarni muammolari bilan shug'ullanish va uni anglash qobiliyatimizni cheklaydi.²²

Xorijiy mamlakatlar tajribasini ko'rib o'tganimizda, deyarli barcha davlatlarda yer uchastkalari yer solig'iga emas balki, mol-mulk solig'i ob'ektiga qo'shilgan holda soliqqa tortiladi. Ushbu soliq amaliyotini mamlakatimiz soliq tizimida qo'llash mumkin. Bunda mamlakatimizdagi mol-mulk va yer soliqlari birlashtirilib, jismoniy shaxslar egaligidagi barcha mulkka, jumladan, yer uchastkalari ham shu mulk ob'ektiga kiritilgan holda soliqqa tortiladi. Buning uchun mamlakatimizda mulk hamda yerning bozor bahosi shakllangan bo'lishi kerak. Shuningdek, soliq stavkalarini ham qaytadan ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Shunday qilib, mol-mulk va yer soliqlarini birlashtirgan holda, ushbu soliq turlarini ixchamlashtirishga, soliqlarni undirish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishga hamda soliqlarning samarali ishlashiga erishish mumkin.

²² <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1061951804000151>

3-bob bo'yicha xulosa

- davlat xususiy mulkni soliqqa tortish yo'li bilan fuqarolar mulkining qonuniyligi va uning harakatini nazorat qilib boradi. Bu esa davlat hududidagi barcha mol-mulkning to'g'ri hisob-kitobini yuritish va ulardan tegishli miqdorda soliq undirib borish mexanizmini yaratishni taqozo etadi. Mol-mulk solig'ining iqtisodiy mohiyati davlat byudjetining shakllanishi va uning daromad qismini ko'payishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy yo'naltirilgan sotsial bozorni shakllantirish uchun byudjet daromadlarining mazkur turi ham ma'lum salmoqqa ega.

-mamlakatimiz rahbariyati tomonidan respublikamizda olib borilayotgan soliq siyosatida soliq to'lovchilarda mas'uliyat hissini, soliqlarning maksadli yo'naltirilganligini anglash hissini shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifalar ham belgilangan. Chunki soliq to'lovchilar nima uchun soliq to'layotganliklari, ularning miqdori nima sababdan oshgani yoki kamaytirilganligini yaxshi tushunishlari kerak.

-soliqlarni undirishning takomillashganligi uning adolatlilik printsipligiga mosligida, to'lovchiga tushunarligida, soliq to'lovchining soliqdan qochmasligida va soliqlarni o'z vaqtida to'lashligida hamda soliqni hisoblashda qulay, optimal va kam harajat qilib undiriladigan variantning tanlanganligida namoyon bo'ladi.

-hozirgi kunda jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'ini muammoli jihatlaridan biri uni to'liq ro'yxatga olish va qiymatini baholashdadir. Mol-mulkni kadastr qiymati bo'yicha baholashdagi salbiy jihatlar oldi-sotdi jarayonida yuzaga chiqadi. Mol-mulkning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish chog'ida soliq to'lamaslik yoki soliq summasini kamaytirish maqsadida oldi-sotdi hujjatlari kadastr qiymati bo'yicha rasmiylashtiriladi. Ammo haqiqatda amalga oshiriladigan bitim esa bozor bahosida tuziladi.

-mol-mulkning soliqqa tortilmaydigan minimum qiymatini belgilashda soliq to'lovchi joylashgan hududning rivojlanganlik darajasi, oila a'zolarining soni, soliq to'lovchining ijtimoiy ahvoli, to'lovga qobiliyatlilik darajasi kabi turli xil omillarga e'tibor berish kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlatning barqaror kuchli iqtisodiy-ijtimoiy siyosat olib borganligi yoki nufuzi bir nechta omillar jumladan, uning jamiyat ishtirokchilari, ya'ni xalqining moddiy va ma'naviy to'liq ta'minlanganligi, ijtimoiy himoyalanganligi, xususiy sektor salmog'ining yuqoriligi, iqtisodiyotda xususiy mulkka egalik huquqining yuqori ko'rsatkichi, iqtisodiyotni erkinlashtirilganligi hamda birga barcha sohalar adolatli huquqiy himoyalanganligidan nishonadir.

Soliq siyosati to'g'ri olib borilishi natijasida Davlat va mahalliy byudjetlar etarli darajada moliyaviy manbaga ega bo'ladi, bu esa mamlakat milliy iqtisodiyotining hamma sohalarida foydalanish imkoniyatini yaratadi, mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshishiga sabab bo'ladi.

Jismoniy shaxslarga beriladigan beriladigan imtiyozlar eng avvalo hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muammolarni echishga ijobiy yordam berishi kerak. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni berilishi mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllantirishda daromadlarni tushishi kamayishiga olib keladi. Mahalliy byudjetlar daromadlarini ko'payishi o'z navbatida soliq to'lovchilarning moliyaviy ahvolini yaxshilanishi hamda yuzaga kelgan muammolarni echilishi bilan bog'liqdir.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizda jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini undirish holatini, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig'ining o'rni hamda uni takomillashtirish zarurligini o'rganib chiqib quyidagi xulosalarga to'xtaldik.

1-xulosa. Mahalliy byudjetlarni barqarorlashtirish, soliq-byudjet yaxlitligiga erishish, mahalliy byudjetlarda ichki muvozanatni ta'minlash, ya'ni birinchi yo'nalishni mahalliy byudjetlarning takomillashuviga qaratish.

2-xulosa. Mol-mulkni kadastr qiymati bo'yicha baholashdagi salbiy jihatlar oldi-sotdi jarayonida yuzaga chiqadi. Mol-mulkning oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish chog'ida soliq to'lamaslik yoki soliq summasini kamaytirish maqsadida

oldi-sotdi hujjatlari kadastr qiymati bo'yicha rasmiylashtiriladi. Ammo haqiqatda amalga oshiriladigan bitim esa bozor bahosida tuziladi.

3-xulosa. Xorijiy mamlakatlar tajribasini ko'rib o'tganimizda, deyarli barcha davlatlarda yer uchastkalari yer solig'iga emas balki, mol-mulk solig'i ob'ektiga qo'shilgan holda soliqqa tortiladi. Ushbu soliq amaliyotini mamlakatimiz soliq tizimida qo'llash mumkin.

4-xulosa. Byudjetlarning barqarorlashtirishga nafaqat daromadlarini oshirish, balki xarajatlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan ham qarash lozim. Xarajatlarni optimallashtirish ularning hududiy imkoniyatlar bilan bog'lanishini bildiradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan quyidagi takliflarni keltirishni maqsadga muvofiq deb hisobladik:

1-taklif. Hozirgi kunda jismoniy shaxslar mahalliy soliqlarning to'lovchisi sifatida hisobga olishda uchastka davlat soliq inspektorlarining hududlar bo'yicha notekis taksimlanganligi, ya'ni ularni uchastka maydoniga qarab emas, balki xo'jalik soniga qarab taqsimlanishi natijasida hisobga olishda muammolar kelib chiqmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish maqsadida uchastka davlat soliq inspektorlarining tayanch punktlarni zamonaviy ofis va kompyuter texnologiyalari bilan jihozlash, global va lokal axborot tarmoqlariga bog'lash lozim.

2-taklif. Jismoniy shaxslardan undirilayotgan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni qisqartirish taklif etiladi. Chunki amaliyotda ushbu imtiyozlarning ko'p hollarda maqsadga muvofiq ishlatilmasligi kuzatilmoqda. Shu maqsadda imtiyozli jismoniy shaxslarga soliq turlaridan imtiyoz taqdim etmasdan ularning ish haqi yoki pensiyalariga ustama belgilash muammoni etarlicha hal etishi mumkin.

3-taklif. Egaligida joylashgan joylarga qarab mol-mulk ob'eti ikki va undan ko'p bolsa, faqat bittasiga belgilangan stavkada soliq solish, kolgan soliq ob'ektlariga belgilangan stavka ikki baravar yuqori stavkada soliq solish kerak, bu albatta birinchi navbatda ko'chmas mulk ob'ektlarini narxini keskin tushishini ta'minlaydi, ikkinchi navbatda byudjet mablag'lari ko'payishiga olib keladi.

4-taklif. Jismoniy shaxslarning mol-mulkalaridan olinadigan soliq bo'yicha muammolardan biri soliq summasining o'z vaqtida va to'liq undirilmasligidir. Mazkur muammoni hal qilish uchun soliq to'lovchilarga keng targ'ibot va tashviqot ishlarini yo'lga qo'yish hamda soliq madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5-taklif. Takomillashtirish yuzasidan yana bir taklifimiz bu soliq turini kvartira to'lovlariga qo'shib yuborish kerak. Chunki odamlar kvartira to'lovini puli bo'lsa, so'zsiz to'laydilar, lekin soliqni esa ko'pchilik odamlar to'lashdan bosh tortishadilar. Agar bu soliq kvartira to'loviga qo'shilganda, huddi transport vositalari mulk solig'ining benzinni narxiga qo'shilgandek umumiy tartibda ajratib olinaverar edi.

6-taklif. Yaponiyada fuqarolarning soliq madaniyatini yuksaltirish, soliq to'lashda ongli munosabatni shakllantirish maqsadida o'z-o'zini boshqarish organlari bilan hamkorlikda har yili 11-17 noyabr kunlari "Soliq haqida o'yaylik haftaligi" maxsus tadbiri o'tkaziladi. Shunga o'xshash tadbirlarni mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga tadbiriq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: -T.: “O'zbekiston” nashriyot - matbaa ijodiy uyi, 2012 y. -40 B.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi.-T.: Adolat, 2014 y.- 408 bet
3. «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi, 1997 yil 29 avgust, 1-2 b.
4. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 2 mayda yangi tahrir ostida tasdiqlangan “Tadbirkorlik faoliyati yer kinligining kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 26 apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida” O'RQ-327-sonli Qonuni
6. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son; 2014 y., 36-son, 452-modda
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig'ini joriy etish to'g'risida»gi PF-2086-sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 28 yanvar, PQ-1050-son.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-2270-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-2455-sonli Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1257-sonli Qarori .

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 2010 yil 26 apreldagi "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-1326-sonli qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 98-sonli qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 28 iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasida qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-4232-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyundagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4453-sonli Farmoni

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 18 iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-sonli Farmoni

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi "Bozorlar va savdo kom'lekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli Qarori

18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 2 oktabrdagi «Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ayrim toifadagi moddiy shaxslarga molk-mulk solig'i, yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzulmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlar berish tartibi to'g'risida»gi VM-281-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasining 2014 yil 4 dekabrda "Soliq va budjet siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi

munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-379 sonli Qonuni.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 apreldagi “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4609-sonli Farmoni.

21. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksini tasdiqlash to'g'risida”gi O'RQ-360 sonli Qonuni.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 apreldagi “O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4609-sonli Farmoni.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 15 apreldagi «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2164-sonli Qarori

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda “2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2460-sonli qarori

25. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 dekabrda “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'RQ-396-sonli Qonuni

26. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 31 dekabrda «Soliq va budget siyosatining 2016 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'RQ-398-sonli

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni

28. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 3454-sonli Qarori

29. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda
“O'zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari
prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida”gi 2699-sonli Qarori

30. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyulda
ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy
to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5116-
son Farmoni

31. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 avgustda
soliq xizmati organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari
to'g'risida”gi PQ-3168-son Qarori

32. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Soliq qonunchiligini
tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida. 2018 yil 13
fevral, F-5214-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari:

33. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan
birga quramiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. –488 b.

34. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy
javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –
Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. –104 b.

35. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini
birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

36. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –
yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O'zbekiston” NMIU,
2017. – 48 b.

37."Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasidan olindi. Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11 (6705)

3. Darslik va o'quv adabiyotlari:

38. Vahobov A., Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T: “Sharq”, 2009. –448 b.

39. Jo'raev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2015. –232 b.

40. Jo'raev A., Shirinov S. O'quv qo'llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. -391 b.

41. Almardonov M. Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. –T.: “Cho'lpon nomidagi NMIU”, 2013. -296 b.

42. Soliev A. Korxona iqtisodiyoti. –T.:“Fan va texnologiya”, 2013.-368 b.

43. Shamsutdinov F., Shamsutdinova Sh. Chet mamlakatlar soliq tizimi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2011. –508 b.

44. Adizov A. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar tizimini takomillashtirishning nazariy va amaliy masalalari. Risola. –T.: “Akademnashr”, 2012. -128 b.

45. Malikov T., Vahobov A. Moliya. Darslik.–T.: “NOSHIR”, 2010.-712 b.

46. Urazov K., Xudayberdiev N. Soliqlar va to'lovlar auditining xususiyatlari. Samarqand, 2012. -300 b.

47. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abdurahmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2009. –184 b.

48. Yo'ldoshev A. Soliq va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NORMA”, 2007. –128 b.
49. Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. –T.: “NOSHIR”, 2012. –236 b.
50. Gadoev E. Bilvosita soliqlar: qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i. –T.: “NORMA”, 2011. –328 b.
51. Gadoev E. Foyda solig'i. –T.: “NORMA”, 2011. –408 b.
52. Zavalishina I. Soliqlar: nazariya va amaliyot. –T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 2005. –544 b.
53. Gadoev E., Kuzieva N. O'zbekistonning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga soliq imtiyozlari va preferentsiyalarning roli va ahamiyati. O'quv-uslubiy qo'llanma –T.: “EL PRESS”, 2011. –204 b.
54. Jo'raev A., Toshmatov Sh., Abduraxmonov O. Soliqlar va soliqqa tortish. O'quv qo'llanma, –T.: “Norma”, 2009. –184 b.
55. Jo'raev A. Yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: “O'qituvshi” nashriyoti, 2007. –232 b.
56. Гончаренко Л.И. Налогообложение организаций. Учебник. –М.: «КноРус», 2018. -512 с.
57. Черник Д.Г. Теория и история налогообложения. Учебник. –М.: «Юрайт», 2016. -364 с.
58. Майбуrows И.А. Налоги и налогообложения. Учебник. –М.: «ЮНИТИ», 2016. -487 с.
59. Митюкова Э.С. Налоговое планирование: более 60 законных схем. – М.: «АйСи», 2017. -360 с.
60. To'raev Sh.Sh. Soliqqa tortishni tahlil etishning dolzarb masalalari. -T.: “Akademiya”, 2005. - B. 130
61. O'rmonov J.J. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi: O'quv qo'llanma - T.: Soliq akademiyasi, «Dizayin-Print», 2007. -B. 202.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar):

62. Umarova N., Odilova D. Soliq tizimini taomillashtirish – iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishi. //Moliya. 2013, №4. –105 b.

63. Allayarov Sh., Eshonqulov Z. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari //Moliya. 2013, №2. –103 b.

64. Abdurahmonov O. Jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish. //Bozor, pul va kredit. 2012 yil 7-son. 29-31 bet

65. O'rmonov J. Mahalliy budjet daromadlarini oshirish yo'llari. //Soliq siyosatini yanada takomillashtirish-prinsipial muhim ustuvor vazifa. Respublika amaliy-ilmiy konferentsiyasi tezislar to'plami. -Toshkent, 2015. -B. 156-157.

66. Budjet daromadlarini shakllantirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda fiskal siyosatiga innovatsion yondashuv. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.:O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo'mitasi. Soliq Akademiyasi. 2014. 23-24 may

67. Toshkent shahar Shayxontohur tuman davlat soliq inspeksiyasi ma'lumotlari.

5. Internet saytlari:

68. <http://www.gov.uz-O'z.R>. Vazirlar Mahkamasi rasmiy sayti

69. <http://www.soliq.uz-O'z.R>. Davlat soliq qo'mitasi rasmiy sayti

70. <http://www.mf.uz-O'z.R>. Moliya vazirligi rasmiy sayti

71. <http://www.stat.uz-O'z.R>. Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti

72. <http://www.lex.uz-O'z.R>. Adliya vazirligi huzuridagi huquqiy axborot bilan ta'minlash markazi rasmiy sayti.

73. <http://www.ziynet.uz> - Jamoat axborot ta'lim tarmog'i

74. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1061951804000151>